

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

8-son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 8 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Baxranov Sherzod*

O‘ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O‘RNI .....	10-16
---	-------

*Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna*

MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI .....	17-21
--	-------

*Sattarova Marhabo Mamatovna*

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA‘SIRI .....	22-30
--	-------

*Raxmatov Mirjon*

BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN .....	31-38
---	-------

*To‘xtasinov Mira‘zam*

SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI .....	39-42
---	-------

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Kuliboyev Azamat Shonazarovich*

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	43-48
---	-------

*Azgarov Abdumutalib*

INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO‘LLANILISHI HOLATI TAHLILI .....	49-56
---	-------

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*

IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE .....	57-60
--	-------

*Otabekov Javdod*

GO‘SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA “AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGI” IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI .....	61-68
--	-------

*Navruzov Dilshod Ismatullayevich*

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASH .....	69-74
--	-------

*Uralov Temur Boxodir o‘g‘li*

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	75-81
--	-------

*Samandarov Og‘abek*

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI .....	82-86
---	-------

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

- Yuldashev Rustam Daniyrovich*  
YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT  
RIVOJLANISHIDAGI O'RNI ..... 87-93
- Adilov Zafar Yunusovich*  
ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L ..... 94-98
- Berdikulova Surayyo Aslamovna*  
IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI ..... 99-104
- Taniqulov Jonibek Ashirkulovich*  
ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI ..... 105-113
- Yarbaev Xasan Xazratqulovich*  
JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH:  
MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL ..... 114-118
- Maxsudjonov Kamronjon*  
MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY MADANIYATIGA  
TA'SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI ..... 119-123
- Qo'chqarov Oybek G'ulomovich*  
INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI:  
IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV ..... 124-128
- Otaqulov Elyor Madiyrovich*  
EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI ..... 129-136
- Mamatqulov Rashid Pazilbekovich*  
TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR ..... 137-141

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

- Niyazov Ravshan Turakulovich*  
SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR  
XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI ..... 142-148
- Yunusova Xilola Ravshan qizi*  
KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI  
"V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA ..... 149-154
- Absalamova Gulmira Sharifovna*  
LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING  
NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA ..... 155-158
- Dadajanova Aziza Karimullayevna*  
THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION:  
A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE ..... 159-170
- Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna*  
YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI  
RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA)  
ERTAGI MISOLIDA ..... 171-175
- Babajanova Iqbol Salomaddinovna*  
SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI ..... 176-180

<i>To'xtayeva Sarvinoz</i> DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI .....	181-184
<i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i> TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI .....	185-189
<i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i> CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY .....	190-195

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>O'rinboyev Rustamjon</i> A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA .....	196-206
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI .....	207-212
<i>G'ofurova Dilafuz</i> AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR .....	213-218
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI .....	219-223
<i>Juraeva Asal</i> OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN .....	224-228
<i>Ходжаева Шурин</i> ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ .....	229-239
<i>Imomniyozov Doniyorbek</i> SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK: IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILY YONDASHUVLAR .....	240-250
<i>Asadov Shahridin Faxriddinovich</i> XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI: SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN .....	251-254
<i>Суннатиллаева Сарвиноз</i> АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА .....	255-262
<i>Anarbayev Eldor</i> KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....	263-269
<i>Ibrohimov Azimjon</i> KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK .....	270-278

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI .....	279-285
--	---------



<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i> TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI .....	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i> OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i> FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN .....	303-309
<i>Berdiyorova Nilufar Berdiyori qizi</i> INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI .....	310-314
<i>Hamidov Sherali Shirinovich</i> BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI .....	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i> TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI .....	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i> "NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI .....	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT" .....	337-341

**08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES**

**Received:** 20 July 2025  
**Accepted:** 5 August 2025  
**Published:** 10 August 2025

*Article / Original Paper*

**SPECIFIC FEATURES OF ACCOUNTING IN THE PUBLIC SECTOR**

**Kuliboyev Azamat Shonazarovich**

Doctor of Philosophy in Economic Sciences (PhD)  
Professor of the “Budget Accounting and Treasury” Department  
at Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article provides a detailed study of the specific features of accounting in the public sector, which differ from those in the private sector. It also offers a scientific justification of the characteristics of public sector accounting. Scientific conclusions have been drawn regarding the improvement of the organizational, technical, and methodological aspects of organizing and maintaining accounting in the public sector.

**Keywords:** accounting, bookkeeping, budget classification, budgetary organization, budget accounting, public sector, memorial order, treasury, accounting policy, reporting.

**DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Kuliboyev Azamat Shonazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Byudjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasida professori  
E-mail: [azamatkuliboyev@gmail.com](mailto:azamatkuliboyev@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat sektoridagi hisobning xususiy sektor hisobidan farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlari batafsil o‘rganilgan. Shuningdek, davlat sektorida hisob yuritishning xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslangan. Davlat sektorida hisobni tashkil qilish va yuritishning tashkiliy, texnik va uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** buxgalteriya, buxgalteriya hisobi, byudjet tasnifi, byudjet tashkiloti, byudjet hisobi, davlat sektori, memorial order, g‘azna, hisob siyosati, hisobot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N06>

**Kirish.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat sektoriga bo‘lgan ehtiyoj uning uzoq tarixiy rivojlanish bosqichlarida unga bo‘lgan zaruriy shartlar bilan asoslanadi. Iqtisodiyotda, xususan, davlat sektori tashkilotlarida ham tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol qilish jarayonlari amalga oshiriladi. Shuningdek, amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning pullari davlat sektori tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalariga kelib tushadi. Bu esa ushbu tashkilotlarda hisob ishlarining olib borilishi zaruriyatini vujudga keltiradi.

Davlat sektoridagi tashkilotlarda hisob yuritishning xususiyatlari shu bilan izohlanadiki, unda tashkilotning ta‘sischisi davlat hisoblanadi. Shuning uchun davlatning vakolatli organlari tomonidan byudjet tashkiloti tashkil etiladi, faoliyat yo‘nalishiga qarab, tegishli vazirliklar va

idoralarga biriktiriladi. Bundan maqsad ushbu biriktirilgan byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish, moliyaviy hisobotlarini qabul qilish va doimiy ravishda nazoratni amalga oshirish hisoblanadi.

Davlat sektoridagi tashkilotlarda hisob yuritish faoliyat yo'nalishiga qarab ma'lum normativ – huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bunday holat byudjet hisobining tijorat tashkilotlaridagi buxgalteriya hisobiga nisbatan asosiy farqli jihatlarini keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda byudjet tashkilotlari davlat tomonidan qat'iy moliyaviy nazorat ostida turibdi. Shu munosabat bilan davlat mulki va byudjet mablag'larini aniq hisobga olish uchun yaxlit va ishonchli hisob tizimi talab etiladi.

Bugungi kunda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni asoslash uchun muayyan faoliyat sohalarini hisobda aks ettirish dolzarblik kasb etmoqda. Uzoq yillar mobaynida byudjet tashkilotlari hisoblash usuli sifatida modifikatsiya qilingan usuldan foydalangan. Bu usul faqat moliyaviy aktivlar, majburiyatlar va kassaviy oqimlarni aks ettirish imkonini beradi. Ya'ni, avval amal qilgan byudjet hisobi tizimi faqat byudjet mablag'larining qoldiqlaridagi o'zgarishlarni inobatga olgan.

Ushbu maqola mavzusining dolzarbliigi ham davlat sektorida hisobni tashkil etish xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liqlikni isbotlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tadqiqot mavzusi doirasida xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy asarlari va maqolalari o'rganib chiqildi.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari S.S.Lyovina, A.R.Xametova tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, hisobni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bozor iqtisodiyotiga o'tishni hisobga olgan holda belgilanishi asoslab berilgan. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilib, ilmiy jihatdan batafsil yoritilgan. Shuningdek, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish rejasining elementlari ham ilmiy jihatdan tadqiq etilgan [2,100 – 102].

T.A.Poleщukning asarlaridan biri byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan bo'lib, unda byudjet tashkilotlarida hisob ishlarini tashkil qilishning o'ziga xos tomonlari va hisobotlarni shakllantirish masalalari nazariy – uslubiy jihatdan ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari noishlab chiqarish muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish, byudjet tashkilotlarida pul mablag'lari va xarajatlarni, nomoliyaviy aktivlarni, turli xil hisob – kitoblarni hisobga olish va hisobotlarni shakllantirish masalalari ham batafsil yoritilgan [7].

Byudjet, davlat, avtonom muassasalar uchun buxgalteriya hisobini yuritish tartibining nazariy – uslubiy jihatlari I.P.Vorobeva, A.L.Spesivseva va G.A.Barыshevalarning asarida ko'rsatilgan. Hisob siyosatining har bir yo'nalishi bo'yicha birlamchi hujjatlar, buxgalteriya registrlari taqdim etilishi, subschyotlarning korrespondensiyalari berilgan. Birlashtirilgan buxgalteriya hujjatlari va hisobot shakllariga misollar keltirilgan. Byudjetni moliyalashtirish va tadbirkorlik faoliyatini hisobga olish siyosatining xususiyatlari ko'rsatilgan [1].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan M.Ostonaqulov, S.U.Mehmonov, va A.A.Ostonokulovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida byudjet tashkilotlarida hisob siyosatini shakllantirish masalalari ko'rib o'tilgan.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi masalalari M.Ostonaqulovning asarlarida aks etgan. Olim byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish, xarajatlarni to'lash, pul mablag'lari va xarajatlar, asosiy vositalar va material zaxiralar, hisob – kitoblar hamda

byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini nazariy – uslubiy jihatdan to'liq yoritib bergan. Shuningdek, byudjet tashkilotlarida inventarizatsiya o'tkazish tartibi va hisobotlarni tuzish qoidalarini ham batafsil bayon etgan [5].


S.U.Mehmonov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda byudjet tashkilotlarida hisobini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini shakllanishi va harakatining umumiy sxematik ko'rinishi, byudjet tashkilotining mulkchilik asosiga, davlat byudjetini tuzish va ijro etish prinsiplariga va boshqa bir qator omillarga bevosita bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [4].

A.A.Ostonokulovning tadqiqotlari byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisobotining nazariy – uslubiy asoslari, amaliyoti, tahlili hamda hisob ishlarini yuritish, tashkil qilish va hisobotlarni shakllantirishni uslubiy jihatlari takomillashtirish masalalari yoritilgan [6].

Yuqoridagi xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining tadqiqotlarida asosan byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi xususiyatlarining nazariy–uslubiy jihatlari ochib berilgan bo'lsa-da, davlat sektorida soha xos xususiyatlarini inobatga olgan holda hisob yuritish masalalari batafsil o'rganilmagan. Shu boisdan, ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar olib borish bugun kunda muhim ahamiyatga ega.

**Metodologiya.** Davlat sektorida hisobni tashkil etish va yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda amaldagi byudjet qonunchiligi qoidalarini hisobga olgan holda tizimli tahlil qilish, taqqoslash, analiz, sintez va boshqa shu kabi bir qancha tadqiqot usullaridan foydalangan.

**Tahlil va natijalar.** Davlat sektorida hisob xususiy sektor hisobidan farq qiluvchi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega (1–rasm).



1 – rasm. Davlat sektoridagi hisobning xususiy sektor hisobidan farq qiluvchi xususiyatlari<sup>1</sup>


<sup>1</sup>Muallif tomonidan ilmiy tadqiqotlar asosida tuzilgan

Yuqoridagi rasmda keltirilgan xususiyatlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Moliyaviy natija emas, ijtimoiy samara asosiy maqsad hisoblanadi. Davlat sektori tashkilotlari foyda olish uchun emas, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, aholiga xizmat ko'rsatish uchun faoliyat yuritadi. Hisobotlarda moliyaviy samaradan ko'ra ijtimoiy natijalar muhim hisoblanadi.
2. Byudjetga asoslangan moliyalashtirish. Davlat sektori tashkilotlari faoliyatining asosiy moliyalashtirish manbai davlat byudjeti mablag'lari hisoblanadi. Buning uchun albatta xarajatlar smetasi tuziladi, xarajatlari ushbu smeta asosida amalga oshiriladi. Bunda byudjet intizomiga amal qilinadi.
3. Xarajatlarni hisobga olishga yo'naltirilgan tizim. Davlat sektoridagi tashkilotlarda hisob yuritish ko'proq xarajatlarni to'g'ri va shaffof qayd etishga qaratilgan. Shuningdek, byudjet tashkilotlarining daromadlari byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'g'ri keladi.
4. G'aznachilik tizimi orqali mablag'larning aylanishi. Davlat sektoridagi tashkilotlarga mablag'larning kelib tushishi, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan kassa xarajatlari Yagona g'azna hisobvarag'i orqali amalga oshiriladi. Bu degani, mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati G'aznachilik xizmati bo'limlari tomonidan ham amalga oshiriladi. G'aznachilik tizimi xarajatlarni nazorat qilish, mablag'larni maqsadli sarflashni ta'minlash uchun joriy qilingan.
5. Maxsus standartlar va normativ – huquqiy bazalar. Davlat sektorida hisob Byudjet hisobi standartlari, xalqaro miqyosda “Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari” (IPSAS) asosida yuritilishi mumkin. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha byudjet tashkilotlari hisobni qat'iy qonunchilik asosida yuritadilar.
6. Ochiqlik va jamoatchilik nazorati. Byudjet hisoboti ma'lumotlari keng jamoatchilikka taqdim etiladi, parlament va jamoatchilik nazorati ostida bo'ladi. Bu hisobotlarda shaffoflik va javobgarlik tamoyillari ustuvor hisoblanadi.

Davlat sektoridagi tashkilotlarning barchasi amaldagi normativ – huquqiy hujjatlarga muvofiq davlat funktsiya va vazifalarini bajarsa-da, ularning tarmoq va sohalari, boshqaruv tizimi, faoliyat yo'nalishi, moliya – xo'jalik faoliyatini boshqarish tizimi, tashkilotlar o'rtasidagi axborot almashinuvi va mablag'larning shakllanish manbalari bo'yicha bir – biridan farqli jihatlari mavjud.

Shu bois, davlat sektorida ham hisob yuritishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud (2-rasm).



## 2 – rasm. Davlat sektorida hisob yuritishning o'ziga xos xususiyatlari<sup>1</sup>

Yuqoridagi rasmda keltirilgan davlat sektorida hisob yuritishning ba'zi bir xususiyatlarini qisqacha izohlab o'tamiz. Davlat sektoridagi tashkilotlarda hisob yuritishning sohaga xos tomonlari deganda, tashkilotning ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat va sport, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga xosligi, faoliyat yuritishi tushuniladi. Chunki, har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlari va amal qiladigan normativ–huquqiy hujjatlari mavjud.

Hozirgi kunda byudjet sohasida buxgalteriya hisobining barcha jarayonlarini o'z ichiga olgan buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha operatsiyalar “DMBAT” va “UzASBO” dasturiy majmualarida to'liq avtomatlashtirilgan. Bu dasturiy majmualar yildan yilga takomillashtirilib borilmoqda. Natijada davlat byudjeti ijrosi hisobining ishlari to'g'ri va mazmun jihatidan ketma–ket bajarib borilishiga erishiladi, choraklik moliyaviy hisobotlar to'g'ri shakllantiriladi. Byudjet hisobi axborotlarining foydalanuvchilar uchun uzluksizligi va ishonchliligi hamda eng muhimi davlat byudjeti ijrosi bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun hisob ma'lumotlarining tezkorlik bilan ta'minlanishiga erishiladi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot davomida davlat sektorida hisobni tashkil etish va yuritishning asosiy xususiyatlari tahlil qilindi. Davlat sektoridagi tashkilotlarning asosiy vazifasi bu davlat funksiyalarini bajarish uchun byudjet mablag'larini maqsadli sarflashdir. Davlat sektoridagi tashkilotlar ijtimoiy, madaniy, ta'lim, tibbiyot, huquqni muhofaza qilish sohalarida faoliyat olib borishi mumkin. Ushbu faoliyat uchun ajratiladigan mablag'lar qattiq nazorat ostida bo'lishi shart. Buning uchun hisob tizimini aniq va to'g'ri tashkil qilish zarur.

Byudjet hisobining o'ziga xos jihatlari – byudjet tasnifi, Yagona schyotlar rejasi, hisobning memorial orderda yuritilishi, moddiy boyliklarni hisobga olish va mehnat haqi tizimida namoyon bo'ladi. Bular ham qat'iy qonunchilik bilan tartibga solinishi kerak.

<sup>1</sup>Muallif tomonidan ilmiy tadqiqotlar asosida tuzilgan

Hisobot axborotini shakllantirish davlat sektori tashkilotlarining samarali faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u haqiqiy moliyaviy–iqtisodiy faoliyatga asoslanadi. Shu sababli, hisob yuritish tizimini doimiy ravishda uslubiy jihatdan takomillashtirish zarur.

Byudjet hisobi samaradorligini oshirish uchun uning tahlilchanligi va operativligini oshirish, hujjat aylanmasi va hisob tizimlarining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish talab qilinadi.

Umuman olganda, davlat sektorida hisobni tashkil qilishda uning o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor berish va hisobning uzluksizlik, ishonchlilik, ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi prinsiplariga amal qilish kerak.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Воробьева И.П., Спесивцева А.Л., Барышева Г.А. Бухгалтерский учет в бюджетных учреждениях: Учебное пособие – Томск: Изд-во ТПУ, 2012. – 252 с.
2. Лёвина С.С., Хаметова А.Р. Особенности бухгалтерского учета в бюджетных организациях // Журнал “Экономика и право”. – 2015. № 12 (58). – с. 100 – 102.
3. Shonazarovich, Kuliboyev Azamat. "REGULATORY AND LEGAL REGULATION OF ACCOUNTING IN BUDGETARY INSTITUTIONS." EPRA International Journal of Economics, Business and Management Studies (EBMS) 10.6 (2023): 82-86.
4. Меҳмонов С.У. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби: назария ва амалиёт. Монография – Т.: “Iqtisod va moliya”. 2016. – 136 б.
5. Остонақулов М. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. – Т.: “Iqtisod va moliya”. 2009. – 428 б.
6. Остонақулов А.А. “Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисоби ва ҳисоботи методологиясини такомиллаштириш” монография. Т: VNESHINVESTPROM нашриёти, 2021, 208 бет.
7. Полещук Т.А. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях: Учебное пособие. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2006. – 108 с.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 8 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).